

“OYNING GARDISHI” HIKOYASIDA RAMZLAR TASVIRI

Feruza Abdujabborova

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

mahbuba88@bk.ru

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada mashhur o‘zbek yozuvchisi Ahmad A‘zamning “Oyning gardishi” hikoyasi tahlilga tortilgan. Undagi ramz va majozlarning tavsifi yoritilgan. O‘shini istamaydigan, yangiliklarni qabul qilgisi kelmaydigan, bir joyda qotib qolgan xalq tasviri tahlillar bilan yoritilgan.*

***Аннотация:** В этой статье к анализу был привлечен рассказ известного узбекского писателя Ахмада Азама “фланец Луны”. В нем освещается описание символов и образов. Образ народа, не желающего расти, не желающего принимать новшества, застрявшего где-то, освещается анализом.*

***Annotation:** in this article, The Story of the famous Uzbek writer Ahmad a‘zam “the flange of the Moon” is drawn into analysis. The description of the symbols and metaphors in it is illuminated. A folk image, which does not want to grow, does not accept the news, hardened in one place, is illuminated by analyzes.*

***Kalit so‘zlar:** oy, oyning gardishi, oq qo‘y, xarakter, obraz, realizm, qobiq, kitob, ramz, xarakter.*

Kirish: Taniqli yozuvchi Ahmad A‘zam o‘zining takrorlanmas va samimiy ruhda yozilgan asarlari bilan o‘quvchi qalbidan munosib o‘rin egalladi. Yozuvchi asarlarining “tili qiyin”ligi uni o‘qimasligimizga sabab bo‘la olmaydi. Uning o‘ta nozik tarzda asarlarida ko‘targan muammolar va mulohazalar ularni mutolaa qilgan har bir ongli inson yuragini bezovta qiladi. Ahmad A‘zamning ruhiyati uning asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. G‘oyoki, u barcha asarlarida aynan o‘zini tasvirlagandek. Yozuvchi bemor yillarida ham ijoddan to‘xtamadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: U “Asarlardan firqalar” to‘plamida: “Odam hamma narsaga shukur qilishi kerak. Avvalo, Xudoning bergan umriga. Men bergan dardiga ham, davosiga ham shukur qilaman. Hastalik davrida 3ta kitob yozdim. Bu jihatdan umrimdan roziman. Men Allohning ko‘rsatgan har kuniga shukur qilib yashadim”, – deb yozib o‘tadi. Adibning deyarli yozgan har bir asarida davrning eng dolzarb nuqtalaridagi illat va qusurlar ochib beriladi.

Natijalar: Yozuvchining “Oyning gardishi “ hikoyasini ham o‘zida chuqur ma’no kasb etgan asarlari qatoriga qo‘shishimiz mumkin. Hikoya sof realizm uslubida yozilgan . Asar biografik xarakterga ega bo‘lib, unda kattalardek fikrlovchi yosh Ma’sudning atrofdagi turli voqea va hodisalarni o‘z ta’biri bilan talqin etishi natijasida, bola nigohi orqali ba’zi bir insonlarga ko‘zgu tutiladi. Asarda sodda qishloq hayoti, beg‘ubor qalbli insonlarning oddiygina turmush tarzi gavdalanadi. Hikoya bosh qahramonni Ma’sud va uning kichik safarchasi, xayollar olami orqali asosiy g‘oya va mazmun ochib beriladi. Ma’sud asarda keng yoritilgan obraz hisoblanadi. Voqealar rivojida uning bilimga chanqoq, sho‘x, quvnoq, orzularga beriluvchan, o‘zining jajji dunyochasiga ega va shu bilan bir qatorda otasiga juda ham g‘amxo‘r farzand sifatida ko‘ramiz. Uning otasi Akrom bobo juda ham qattiqo‘l, yoshi 60 dan oshgan, ammo qomatini tik tutib yuradi. Otasi biron kimsa bilan urishmagan, san-manga bormagan bo‘lsa ham qishloqdagilar undan qo‘rqishardi, hayiqardi. Mas’ud ko‘p o‘qiganligi uchun otasidan ko‘p tanbehlar ham eshitgan. Bu quyidagi nutqlarda seziladi: “Uxlab qolibsana kitobing surilib, chiroqqa tegay -tegay deb turibdi. Uyqusirab turtib yuborsang, omin, Ollohu Akbar, hammayoq yonib ketadi. Eng birinchi o‘zing yonasan kitobing bilan birga”. Yana bir o‘rinda otasi: “ Birov seni majburlayaptimi, dunyodagi hamma kitoblarni o‘qiysan, deb. Darsingni 5 ga o‘qisang bo‘ldi-da”, deb aytgan o‘rinlarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu ikki nutq nafaqat Akrom boboni balki, yosh Ma’sudning ham xarakterini ochib bergan. Jumladan, bu ikki nutq orqali bolaning qanchalar bilimga chanqoq, serg‘ayrat ekanligini ko‘ramiz . U tunni bilan kitob o‘qib chiqib qachon uyquga ketganini ham sezmay qoladi. Garchi, bunga majbur bo‘lmasa ham hamma kitoblarni o‘qigisi keladi. Bir kuni Mas’ud maktab bog‘idagi

olmani yoshlik qilib o'g'irlab yeganini bilib qolgan Akram ota uni oyog'idan olmaga osib qo'yadi. Shu voqeadan keyin ham Mas'udning otasiga bo'lgan mehr-muhabbati zarracha kamaymaydi. Otasi bir tomondan bolani tushungisi keladi. Axir bola bechoraga ham qiyin, shuncha mol-holga yolg'iz o'zi qaraydi, kitobdan boshqa ovunchog'i yo'q bechoraning. Mas'udning otasi Akrom ota qattiqqo'l ko'ringani bilan aslida farzandini judayam yaxshi ko'radi. U o'z otalik mehrini shu jahldorlik ortiga yashiradi. Asarda bolaning tili bilan tabiat hodisalariga ajoyib beriladi: "Oyning nuri nimadan, mayda changga o'xshagan bo'yoqmi? Havoni, yo'lni shu rangga bo'yagan. Soyalar qora, chunki ularni daraxtlar to'sgan. Nega Oy daraxtlarni ham oqish rangga bo'yamagan? Ularning yashil tusi oq bo'yoq ostida qolib ketmaydimi? Xuddi suyuq rang surtilgandek yaltiraydi. Yana bir o'rinda, "Oy Yer bilan Quyosh orasiga kirganida soyasi yerga tushadi. Muallim aytgani to'g'ri-yu, lekin soyasi buncha bahaybat? Oyning soyasi tipratikandan sal kattaroq bo'lmaydimi?" kabi. U qishloq aholisi shu darajada fikrlaydiki, o'z tasavvurlari bilan tabiatga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishadi. Jumladan, ular quyosh tutilganda "tog'arani dang'illatish" kerak degan qarashlari ham bor. Bola katta bobosi bir paytlar ajina tutib olganini va undan 7 avlodiga zarar bermaslikni so'rab olganligiga ishonardi. Bu ham u yer aholisining sodda va ishonuvchanligiga bir ishora o'laroq ko'rsatilgan.

Mas'udda qorong'u o'rmonda kechgan ruhiy holati atrofidagi ovozlarning yordamida kuchliroq tasvirlanadi. Unga qushlar sayrashi, mashinalar gurillashi, traktorlar tirillashi, shamol shovullashi, aravaning g'iyqillashi birdan eshitilib ketadi. Xuddi, yer nafas olayotgandek edi. Bu tovushlar tez orada to'xtaydi. Shunday bo'ladiku, tovushdan asar ham qolmaydi endi undan ham qo'rqinchliroq muhit hukmron edi. Asarda yoritilgan yana bir obraz haqida gapirib o'tish lozim. Bu Mas'udning akasi, Salohiddin edi. Akram ota bu o'g'li haqida: "Ne -ne azoblar bilan o'qitdim. Qanday pir yillar edi! U bo'lsa, o'qishni bitirib kelib, muallimligini boshlagach: "Ota dindan kechasiz, nima qilasiz yo'q Xudoga ishonib" dedi. Uni dindorligi uchun yuqori mansabga chiqolmayotgan emish. U o'qimishli edi. Ammo o'z imkoniyatlaridan oilasi, yurti uchun foydalanmaydi. Uning nomigina ziyoli edi,

xolos. Akasi necha yillar shaharda yashagan va o‘z qarashlarini, qadriyatlarini butkul unutgan edi. Yuqorida Akram otaning qiynalib bo‘lsa ham o‘g‘lini o‘qitganini ko‘ramiz. Bundan chiqdi u shaharda farzandiga o‘qishiga qarshi bo‘lmagan, xattoki o‘zi buni yoqlagan, ham. Adib bu yerda nima demoqchi? U aytmoqchiki, farzandlarimiz har qanday holatda ham ilm olsin, yuksalsin. Faqat bilimlaridan to‘g‘ri maqsadda foydalansin. Mansab uchun dinidan, o‘zligidan kechmasin.

Oy, oyning gardishi, oq qo‘y asarda voqealarning ko‘p o‘rinlarida real qatnashgan bo‘lsada, ular o‘z ma‘nosida bo‘lmay ramziy ma‘no anglatib kelgan. Bizningcha, bu yerda “oy” detali “yuksaklik, taraqqiy etgan dunyo” ma‘nosida qo‘llanilgan. Voqealar davomida bolaning xayollarga berilishi va oy bilan safari keltiriladi. Masud osmonga oq qo‘yida chiqishni “qo‘y qo‘rasiga qamalib olgan oy”ni u yerdan chiqarishni xohlaydi. U oyning gardish eshigini qidira -qidira topa olmaydi. Oq qo‘y esa bir joyda tiralib turaveradi. Bola qo‘yni yurgazishga harakat qilsa ham qo‘y tisarilmaydi. Otasi esa bu ishni baribir uddalay olmasligi aytadi. Ya‘ni bu “orzudagi dunyo”ni qurishni yolg‘iz o‘zi uddalay olmasligini aytadi. Bu ish uchun bir emas minglab bilimli Masudlar kerak edi. Mamat mesh esa bolaga havasi kelib: “Ko‘p o‘qiganda o‘qimasa oyga chiqarmidi”, –deydi. Bu yerda “oq qo‘y” - “ilm”, “bilim” ma‘nosida keltirilgan.

Xulosa: Adib aytmoqchiki, bola oq qo‘y orqaligina oyga chiqa oldi. Lekin qancha urinsa hamki oyning qo‘ra singari qamagan gardish eshigini topa olmadi. Ich-ichidan xohlaganda ham u bir qadam ham siljiy olmay qoldi. Shunda Orziqul bobo: “Bizni pulsirotdan o‘tkazadigan qo‘yni minib olibsizku”, –deydi. Ya‘ni, bu o‘rinda Orziqul bobo tilidan “bizga najot bo‘luvchi bilimlarni egallay olibsiz”, deyilmoqda. “Oyning gardishi” esa “o‘z qobig‘idan chiqa olmayotgan jamiyat” ma‘nosida ko‘rsatiladi. Xalq o‘shishni istamaydi. Yangiliklarni qabul qilgisi kelmaydi, u bir joyda qotib qolgandek tasvirlanadi. Zero, bolani ilk qiynagan savol garchi oddiy ko‘rinsada, unda ham chuqur falsafiy ma‘no yashiringan edi. Bu savolni bola emas, aslida adib bizlarga bergan edi. Savol quyidagicha keltirilgan: “Shunday yorug‘ bo‘lgan oy atrofida gardish(doirasi)qayerdan paydo bo‘ladi. U qanday qilib shu kattakon oyni

yopiq qo‘ya oladi?” Bolaning savoliga otasi javob berishni istamaydi, amakisi ham unchalik ahamiyat bermay javob qaytaradi. Asli bu savol orqali “ Shunday osoyishta hayotga erishishimizga nahotki shu mayda jamiyat qusurlari yo‘l bermayotgan bo‘lsa”, deyilmoqda. Oyning gardishidan chiqarish uchun bola oq qo‘yida qancha harakat qilsa ham foyda bo‘lmadi. Bu jamiyatni harakatga keltirish, uni turli qusurlarini yo‘qotish uchun bir-ikki o‘qigan odam kamlik qilardi. Agar ular birlashmasa oxirigacha mana shunday bir qobiqqa o‘ralib qolshini Ahmad A‘zam mohirona tarzda ramziy ifodalab bera oldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

5. Ahmad A‘zam. Oyning gardishi. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Ahmad A‘zam. Asarlardan firqalar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
7. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
8. Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи. Т., ILM ZIYO ZAKOVAT. 2023. 120b.